

DENGIZKO‘L KO‘TARILMASINING TEKTONIK TUZILISHI VA NEFTGAZLILIGI

Axmedov Xolxo‘ja Raxmatullayevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda G‘arbiy O‘zbekiston tabiiy gaz qazib chiqarish bo‘yicha yetakchi o‘rinni egalaydi, bu yerda neft va gaz uyumlari asosan yuqori yura davrining rif qurilmalari bilan bog‘liq. Shu bilan bir qatorda quyi-o‘rta yura va qadimgi davr yotqiziqlarini geologik tuzilishini o‘rganish, bularga yangi neftgazga samarali obyektlarni izlash eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. So‘ngi yillarda bu yotqiziqlarni neftgazga istiqboli ekanligiga dalolat beruvchi meterialar yig‘ilib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: sinekliza, plita, Badxiz-Karabil ko‘tarilma zonasi, platforma, Ayzavott burmachanligi.

Annotation: Today, Western Uzbekistan is a leading producer of natural gas, where oil and gas deposits are mainly associated with Upper Jurassic reefs. At the same time, one of the most urgent tasks is to study the geological structure of the Lower Middle Jurassic and ancient deposits, including the search for new oil and gas facilities. In recent years, there has been a growing body of evidence that these fields are promising for oil and gas.

Keywords: syneclises, slabs, Badkhiz-Karabil uplift zone, platform, Ayzavott twist.

Dengizko‘l ko‘tarilmasi tektonik jihatdan Amudaryo sineklizasi Chordjo‘y tektonik pog‘onasining vali janubiy-sharqiy qisimida joylashgan.

Amudaryo sineklizasini neftgazliligini va tektonik tuzilishini Babayev A.G., Davlatov Sh.D., Ibragimov A.G., Ilin V.D., Mirkamilov X.X., Abdullayev G.S., Axmedov P.U., Krilov N.A., Nugmanov A.X., Sitdikov B.B. va boshqalar turli yillarda o‘rganib chiqishgan.

Amudaryo sineklizasi Turon plitasini eng yirik tektonik elementi hisoblanib, uning chekka yon tomonlarida navbat bilan pasayish kuzatiladi. Sineklizaning markaziy qisimi cho‘kindi qoplamada ham kuzatiladigan poydevorda uzilishlar bilan chegaralangan bir qator botiqlik va vallar bilan tavsiflanadi. Amudaryo sineklizasining chekka qisimlarida Buxoro, Chordjo‘y, Bagadjin pog‘onasi, Badxiz-Karabil ko‘tarilma zonasi va Beshkent egikligi ajratiladi.

Chordjo‘y pog‘onasi Buxoro pog‘onasidan janub tomonda joylashgan bo‘lib, shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 500 km, eniga 400 km dan 125 km gacha cho‘ziladi. Janubiy-g‘arbda va shimoliy-sharqda pog‘ona Amudaryo daryosi yonidan va Buxoro pog‘onasini janubiy egilmasidan o‘tuvchi hududiy yer yorig‘i bilan chegaralangan.

Rayonning platforma qoplamasini tuzilishida yura-kaynozoy yotqiziqlarini majmuasi ishtirok etib, bunda titon tuzli qatlami bilan bir-biridan 2 ta qavat ajratiladi.

Tuz usti majmualar yuza qisimini tuzilishi haqida to‘liqroq ma‘lumotlar paleogen buxoro qatlamlarining yuqori qisimi bo‘yicha olingan. Berilgan yuza Ko‘kdumaloq maydoni va qo‘shni maydonlarda barcha chuqur quduqlar bilan burg‘ilangan, hamda mahalliy antiklinal burmalarni izlash maqsadida turli yillarda yoritilayotgan maydonda tuzilmali quduqlar bilan o‘rganilgan.

Yangi Alan maydoni tektonik nuqtiiy nazaridan Dengizko‘l ko‘tarilmasiga mansub bo‘lib boshqa lokal burmahanliklar bilan birga yirik dengizko‘l ko‘tarilmasini hosil qil qilgan Pomuq antiklinalining shariqiy qismida joylashgan.

Pomuq tuzilmasining Buxoro sloylarining ustki yuzasi bo‘yicha shimoliy-sharqiy qism braxiantiklinalarini o‘z ichiga oladi. Burmahan ko‘tarilgan joylar №№ 1, 2 chuqur razvedka quduqlari burg‘ulangan sharqiy qismida joylashgan. Yangi Alan chuqur quduqlari burg‘ulangan janubiy-sharqiy botiq tuzilmalar Ayzavott burmahanligidan ajratadigan tor egiklikga o‘tadi.

Faqat chuqur burg‘ulangan quduqlar ma‘lumotlari bo‘yicha tuzilgan karbonat formatsiyasi yuzasi tuzilmali xaritasida ko‘rinib turibdiki agar Pomuq antiklinali keyingi svod tuzilmalarida murakkablashuvi organogen qurilmalarining reftida tektonik harakatlar hisobiga bo‘ladi, Burmachan botiqligining janubiy-sharqiy qisimini tektonik tuzilishi karbonat formatsiyasi yuzasining bukilishi qora slanslarning to‘planishi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zining hosil bo‘lishida neogen va antropogen chegaralarida alpiy tektogenezi bosh fazasi hisoblangan tektonik jarayonlar to‘liq ahamiyat kasb etadi. Shu sababli karbonat yotqiziqlari yuzasida burmaning janubiy-sharqiy botiqligi rejasi ahamiyatli darajada mustahkam bo‘lib paleogen Buxoro sloylari krovli va kemeridj-titon sloylari bo‘yicha tuz usti yotqiziqlari rajasiga to‘liq mos keladi.

Dengizko‘l ko‘tarilmasi anchadan beri muhim xususiyatlari bilan o‘zini jalb qilib kelmaoqda, bu tektonik element tarkibida bir qancha o‘lchami bo‘yicha yirik tuzilmalar yaqol namayonlangan. Ularning o‘lchami 100 x 110, 130 x 40 km ni tashkil qiladi. Ko‘tarilmada yettita burma ajratilgan. Bu yerda cho‘kindi qoplamaning qalinligi 3500 metrdan oshadi, qalinlikni banday o‘sishi asosan tuz-angidrit formatsiyasi hisobiga bo‘lib, tuz-angidrit formatsiyasining ulushi 700 – 900 metrgacha boradi.

Dengizko‘l neftgazliy rayonidagi burmalar yirik. Samontepa tuzilmasi 20 – 25 x 10 km balandligi 200 m dan ortiq, Dengizko‘l tuzilmasi 25 x 12 km, O‘rtabuloq tuzilmasi 22 x 15 km. Yura yotqiziqlarining yotish chuqurligi 1600 m dan (Dengizko‘l tuzilmasida) 3000 metrgacha (O‘rtabuloq tuzilmasiga) boradi.

Dengizko‘l ko‘tarilmasidagi burmalarda yuqori qalinlikdagi tuz-angidrit formatsiyasi ikkita tuzilmali qavatga bo‘linadi: tuzosti va tuzusti. Burg‘ulash ishlari natijasida Dengizko‘l ko‘tarilmasi burmalari uchun juda etiborli bo‘lib, tuz-angidrit qalinligi keskin o‘zgaradi va bu bilan bog‘liq uning ostki qisimidagi karbonat formatsiyasi qalinligi ham o‘zgaradi, qayerda tuz-angidrit formatsiyasining qalinligi maksimal bo‘lsa karbonat formatsiyasining qalinligi minimal bo‘ladi, yoki aksincha.

Ayni vaqta bu ikkala formatsiyaning jami qalinligi Dengizko‘l ko‘tarilmasida yaqol namayonlangan.

Bu omilni tushintirishni ikkita omili mavjud bo‘lib, bulardan biriga muvofiq karbonat formatsiyasi qalinligining o‘zgarishi tuzilmalarning alohida uchastkalarida rif massivlari mavjudligi bilan asoslanadi. Ikkinchisiga muvofiq – qalinlikning o‘zgarishi tuz-angidrit formatsiyasi karbonat formatsiyasining yuvilgan yuzasi ustiga yotadi.

Hozirgi vaqtda Dengizko‘l ko‘tarilmasi hududida O‘rtabuloq, Samontepa, Xauzak va dengizko‘l tuzilmalarida yirik gaz va gazokondensat uyumlari aniqlangan. Bundan tashqari Shimoliy O‘rtabuloqda zaxirasi bo‘yicha yirik neft uyumi aniqlangan. Bu rayon tuzilmalari va qo‘shni tuzilmalar neft to‘plamlarini izlash uchun yuqori istiqboli hisoblanadi.

Dengizko‘l ko‘tarilmasi hududida katta miqdorda yirik, o‘rta va mayda neftgaz konlari ochilgan. Dengizko‘l-Xauzak-Shodi konlari yirik konlardan bir hisoblanib, yuqori yura karbonat va quyi-o‘rta yura terrigen yotqiziqlari sanoat miqyosida mahsuldor hisoblanadi.

Karbonat yotqiziqlari eng ko‘p tarqalgan bo‘lib, oksford-kimeridj ohaktoshlari rifogen kompleksidagi massiv, tuzilmali-litologik turdagi uyumlardan tashkil topgan va yuqori yomkostli va filtratsion tarkibi bilan farqlanadi.

Buxoro-Xiviva regionida karbonat yura yotqiziqlari yarim asirdan ko‘p vaqt davomida o‘zlashtirib kelinmoqda. Bu kompleksdan deyarli 85 % resurslar olib bo‘lingan, shuning uchun bugungi kunda kichik noanaviy uyumlarni izlash va aniqlash dolzarb masalalardan bir bo‘lib qolmoqda. Terregin yura yotqiziqalaridan aniqlangan yangi uyumlar O‘zbekiston Respublikasining neftgaz potensialini rivojlanishi va uglevodorod xom ashyosi zaxirasining o‘shida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda karbonat formatsiyada samarali tutqichlar resurslarining sezilarli qisqarishi bilan bog‘liq yura terrigen formatsiyasiga katta etibor berilmoqda.

Dengizko‘l ko‘tarilmasi chegarasida O‘rtabuloq koni (XVIII gorizont) №102 quduqda, Ko‘kdumaloq koni №15 quduqda terrigen yura yotqiziqalaridan 6 ming m³/sut debit bilan kuchsiz gaz oqimi olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бабаев А.Г. Геотектоническая история Западного Узбекистана и региональные закономерности размещения скоплений нефти и газа. Л., Недрa, 1966г.
2. А.И. Дьяконов, Б.А. Соколов, Ю.К. Бурлин “Теоретические основы и методы прогноза, поисков и разведки месторождений нефти и газа” Ухта – 2002
3. С.К. Кныш, Н.В. Гумерова, А.К. Полиенко “Основы структурной, исторической и региональной геологии” Издательство Томского политехнического университета 2008

